



FAN OQITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI UZTOZ-SHOGIRD INNOVATSIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

*Arzimbetova Bibisara Atamuratovna
Qoraqolpog'iston Respublikasi PYMO'
Milliy markazi katta o'qituvchi*

Annotatsiya: Umumiy o'rta ta'lif maktablari fan o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish va bilimlarini kengaytirishda va yosh o'qituvchilarni ustoz-shokigrd an'analari assosida ilgor tajiribalarni urganish orqali ularda, izlanuvchanlik, ijodiy fiklash qobiliyotlarini rivojlantirishda kasbiy maxoratini oshirishga yordam beradiganligi boyicha yo'l-yoriqlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik talablar, innovatsiya, o'quvchi mahorati, pedagogik qobilyati, malaka oshirishda pedagogik mahorat, pedagogik texnologiya.

Аннотация: Общеобразовательные школы способствуют повышению профессионального мастерства учителей естественных наук и расширению их знаний, помогают молодым учителям совершенствовать свое профессиональное мастерство путем изучения передового опыта, основанного на традиции наставник-ученик, развития способностей любознательности и творческого мышления.

Ключевые слова: Педагогические требования, инновации, умения учащихся, педагогические умения, педагогические умения в повышении квалификации, педагогические технологии.

Annotation: General secondary education schools help to improve the professional skills and knowledge of science teachers and to help young teachers to improve their professional skills by learning the best practices based on the mentor-student tradition, developing their curiosity and creative thinking abilities.

Key words: Pedagogical requirements, innovation, learners skills, pedagogical skills, pedagogical skills in professional development, pedagogical technology.

Hukumatimiz tomonidan ta'lif sohasi xodimlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifa – barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug' bir ishdir. Shu sababli, har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishda nafaqat nazariy bilimlar berish, balki ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarni hosil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lif, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqyosidagi yutuqlarini ilmiy asoslangan innovasiyalarni tadbiq etgan xolda



pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi mavjud noan'anaviy muammolarni ijobiyl hal etish borasida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi o'ziga xos muhim vazifalarni yuklaydi.

Bu masalaga chuqurroq yondashish hamda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish darkor. Chunki bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni istiqboldagi taraqqiyotning asosini yaratib beradi. Ta'lim-tarbiyaning asosiy ma'suliyati esa o'z navbatida o'qituvchilar zimmasiga yuklatiladi.

Bu esa umumta'lim muassasalari o'qituvchilaridan kasb malakalari, pedagogik mahoratlarini oshirgan holda zamon talabi asosida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish dars samaradorligini oshirish talab etilmoqda. O'qituvchilik, tarbiyachilik kasbi barcha ijtimoyi tuzumlarning sharaflı va o'ta ma'suliyatlari qiyin va murakkab kasbi hisoblangan. Pedagogik mahorat tug'ma istedod yoki nasldan-naslg'a o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsulidir.

Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zamirida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart ya'ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki bu har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg'or o'qituvchilarning pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'r ganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajriybalar bilan boyitishi zarur. Davlatimiz raxbari o'qituvchilar malakasini oshirish va munosib sharoit yaratish haqida so'z yuritar yekan, o'qituvchilarni ishga qabul kilish, ularni malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham toliq o'zgarishini qayd yetdi.

Har yili maktablarga bir qancha o'qituvchilar ishga qabul qilishadi, yangi maktablar hisobiga yana shuncha o'qituvchilarga extiyoj payda bo'ladi. Bundan buyon o'qituvchilikka qabul qilish tanlob asosida buladiganligi aitilgan. Ilk bor qabul qilingan bir yil o'qituvchi stajyor bo'lib ishlaydiganligi va yil yakuni bilan kasibiy sertifikat olishlari, kelgusida bu tizim barcha o'qituvchilar uchun boshqishma-bosqish joriy etilmoqligi ko'rsatilgan.

Endilikda o'qituvchilarning malakasi kasbiy ehtiyojiga kura amalga oshirish aytilmoqda. Yangi malaka oshirishdan oldin o'qituvchining bilimi diagnostikadan o'tkaziladi, va natijadan ko'ra yakka kasbiy ribojlanish yunalishlari belgilanishi ko'rsatilgan. Bunda o'qituvchining bilim ko'rsatmalari past natija olgan o'qituvchilar buyicha uzi o'qigan oliygohga etiroz yuboriladiganligi aytilmoqda.



Bu natiyjalar pedagogik oliygochlari bilan past natija olgan o'qituvchilar an'anaviy usulda yuqori natijaga eriishganlari onlayn shaklda malaka oshirish bayon yetilgan. Hozirgi vaqtida ta'lismizni modernizasiyalash sharoitida ta'lismizni muassasalariga yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan extiyoj va talabning o'sib borishi bugungi kun o'qituvchisiga katta ma'suliyat yuklaydi. O'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lismi-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Ana shunday buyuk ma'suliyat egalarining kasbiy kopotentligini rivojlantirish davr talabidir.

Hozirgi davrda malaka oshirish kurslarida o'qituvchilarni o'qitish ko'p hollarda o'quv axborotini o'zlashtirishga va xotirada tiklashga yunaltirilgan bo'lib, tингловчиларинга faoliyati ko'rsatishiga qaratilgan bo'lmashdan, ularning kasbiy bilimlarini takomillashuvda ehtiyojlarini shakllantirish va rivojlantirishga yunaltirilgan xolos. O'qituvchilar malakasini oshirish jarayonlarini o'zaro ijodiy hamkorlikka asoslangan refleksiv ta'limi muhit sifatida o'qituvchilarni mustaqil ta'lismi olishga, o'zini-o'zi rivojlantirishga va innovation faoliyat ko'rsatishga psixologik jihatdan moslashtirish, ma'naviy boyitish hamda kasbiy bilim, ko'nikma va malaka zamiridagi kompetensiyalarini hamda intellektual qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Yosh o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorgarligini dastlabki davrda mактаб jamoati bilan birgalikda, o'qituvchilarni fan asoslari bilan qurollantirish va ularning tarbiyaviy masalalarda ishtirokini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Tajribaning ko'rsatishicha, yosh o'qituvchilarga pedagogik jamiyat diqqat e'tiborli bo'lsa, ularga taqqoslaganda ustoz yordamlari to'g'ri tashkil etilsa, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik yutuqlarini har taraflama qo'llab-quvvatlanib turilsa, ularning pedagogik faoliyatga mosligi muddati bir qancha qisqaradi. Yosh o'qituvchilarning mактабга qadam qo'ygan dastlabki kunlarida mактаб rahbari ular bilan suhbat o'tkazadi, bunda ularni mактабning ichki va tashqi taraflari bilan tanishtirish shart. Fan xonalarini, sinflarni ko'rsatib o'tilishi, ayrim oldingi tajribali o'qituvchilar va sinf rahbarlari bilan tanishtirilib, ular haqida ma'lumot berib borilishi kerak.

Mактабning ilmiy bo'lim rahbarlari, yosh o'qituvchilar bilan dars rejalarini qanday tuzilishi, журнallarni qanday to'ldirish, o'qish jarayonlarini tashkil etish tomonlariga qanday tayyorgarlik ko'rish haqida fikrlashish va yosh o'qituvchilar bilan tajribali o'qituvchilar orasida suhbatlar o'tkazish zarur.

Mактаб jamoati yosh o'qituvchilarga yordam berish maqsadida, ularga yetarli sharoit yaratish mumkinchiliklari bo'lishini ta'minlashlari zarur. Ishni shunday qilib



tashkil etish kerak bo'ladi. Yosh o'qituvchilar kelajakda bilimli, pedagoglar, shu maktab uchun fidoiy bo'lib yuksalishlari kerak.

Ya'ni pedagogik tajriba va pedagogik staj (malaka) bir xil tushunchalarga ega emas. Shuning uchun unchalik ko'p bo'lмаган pedagogik stajga (malakaga) ega bo'lган o'qituvchining o'zida ham ko'p pedagogik bilim va pedagogik mahoratga ega bo'lishi mumkin. Yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatining mos kelishini ularga har xil savol-javob o'tkazish orqali aniqlash mumkin. Bu yerda o'tkazilgan savol-javoblarda yosh o'qituvchilarning pedagogik faoliyatga mosligi ularning javoblaridan ko'rinxoqda. Ularga uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish uchun ularga metodik yordam berishni maqsad qilgan holda har bir o'qituvchini ustozlarga biriktirish kerak bo'ladi. Demak, ustoz-shogirt innovaciya asosida ustoz-yosh o'qituvchilarga yaqindan yordam beradi.

Bunda yosh o'qituvchilar tegishli bo'lган ma'lumotlarni oladi, uning faoliyati baholanadi. Bunday ma'lumotlarga ega bo'lishi uchun, ustozlar yosh o'qituvchilarning darslarini kuzatadi va tahlil etadi, ularning sinfdan tashqari tashkillashtirgan turli choralarini baholaydi. Tajribalarning tasdiqlashiga yosh o'qituvchilarning birinchi guruhiga qo'yiladigan xarakterli dars rejasini tuzishi yoki bu darajada bilishi, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni o'tkazishni, u yoki bu darajada bilishi, o'z fanini yaxshi bilishi va hokazolar hisoblanadi. Shuningdek, sinf o'quvchilari, ota-onalar va kasbdoshlari bilan birga ishlashish mumkinchiligiga ega bo'lishi. Bunday tipdagagi o'qituvchilarning pedagogik mahoratga erishishlaridagi asosiy qiyinchiliklari o'zi o'tgan darslarini sinfdan tashqari olib borgan darslarini o'zi tahlil etishida ko'zga ko'rindi. Barcha yosh o'qituvchilar maktabga pedagogik faoliyatga yetarli darajadagi tayyorlik bilan keladi deb bo'lmaydi. Bizning ikkinchi guruhdagi yosh o'qituvchilar uchun quyidagilar xarakterli:

Ular metodik adabiyotlar bilan ishlaganda darsda o'quvchilarning shaxsiy tartibdagi va jamiyatdagi ishlarni tashkillashtirilsa, dars va sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish usullarini bilishini aniqlashda, o'quvchilarning bilishi faoliyatlarini va mustaqil ishlarni tashkillashtirishida qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin, ular o'zlarini bilimli qilib ko'rsatishi mumkin. Biroq tajribali ustozlardan nimalarni o'rganishga kelganligi haqida o'ylaydi. Ular o'quv-pedagogik amaliyotni yaxshi o'tkazganligiga ishonib, men mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorman deb hisoblashi mumkin. Bunday tipdagagi yosh o'qituvchilarni pedagogik bilim egallashini rivojlantirish uchun o'qituvchilarning darslariga tez-tez kirib, ularning kamchiliklarini ko'rsatish shart. Shunday tipdagagi yosh o'qituvchilar 6-7 yilda haqiqiy faoliyatga erishishi mumkin.



Uchinchi guruhga kiruvchi yosh o'qituvchilar uchun quyidagilar zarur: Ular darslarini metodik tarafdan to'g'ri tashkil qilsa-da, o'quvchilar jamoasini tashkillashtirishda, tartib-intizom o'rnatishda o'quvchilar bilan shaxsiy tartibda aloqada bo'lishda to'liq yordamga muhtoj bo'ladi. Natijada nazariy tarafdan yetarli bo'limgan tayyorgarlik pedagogik mahoratning yuksalmasligidan darak beradi. Ular metodik ishlanmalardan nusxa tushiradi, o'zgalarning tajribalarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qiladi. O'zlarining xato va kamchiliklaridan tegishli xulosa qila olmaydi, natijada pedagogik mahoratga erisha olmaydi, pedagogik faoliyatga tayyorligi kam bo'lganligini tushunadi.

Demak yuqorida o'tkazilgan savol-javoblardan ko'rindiki, yosh o'qituvchilarning har birida uchraydigan bo'shlisolarni aniqlash mumkin ekanligini ko'rish mumkin. Shu bilan bo'shlisolarni to'ldirish maqsadda ustaz-o'qituvchilar shogirdlariga metodikaliq tavsiyalar berishi lozim.

Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarni boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijobiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajiribalar bilan boyitishi zarur. O'qituvchining pedagogik maxorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida yaqqol ko'rindi, sho'ni e'tirof etish kerakki, o'qituvchining obro'si faqat uning o'zi uchungina emas balki, yosh avlodning istiqboli uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining obro'si, yuqorida qayd qilganimizdek ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liq bo'lsa ikkinchi tomondan jamoat tashkilotlarining mansabdor shaxslarining o'qituvchi obro'sini ko'tarishi borasidagi g'amxo'rлигiga ham bog'liqdir. Yosh o'qituvchilarga har kuni darsga qanday taylorlanish yo'llari dars turlari va uning tarkibini bilish, o'qitishning ko'rgazmoli va amaliy metodlarini yuksaltirish yo'llarini, o'quvchilarni mustiqil bilim olishga o'rgatishni o'quvchilar bilimni tekshirish va baholash uslublarini darsda axborot texnologiyalardan foydalanishni, zamanoviy pedagogik texnologiyalarni ta'limdagi innovatsiyalarni qo'llashni amalga oshirish orqali, ularga metodik yordam berishi natijasida yosh o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish mumkin.

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan o'qituvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqlashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda.



Ularning uzluksiz malaka oshirish kurslarida kompetentligini takomillashtirish bu jarayonni tezlashtiradi.

Ustoz o'qituvchining pedagogik maxoratini oshishiga yordam berishga, kasbiy rivojlanishiga yo'naliш bera olishga, nazariyani amaliyat bilan bog'lay olishga, o'qitishning zamonaviy metodlarini o'zining va jamoadagi faol o'qituvchilarning darsi orqali ko'rsata olishga tayyor bo'lishi lozim. Shuningdek ustoz yaxshi tinglovchi bo'lishi, do'stona muhitni yarata olishi rivojlantirishga yordam berishi o'qituvchining o'z muammosiga o'zi yechim topishiga imkoniyat berishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatishlar davomida o'qituvchining tinglovchilar bilan munosabatini ko'radi, dars jarayoni haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, tinglovchilarning imkoniyatlarini bilib oladi.

O'qituvchilarning o'quv jarayoniga yangi g'oyalarni kiritishi uchun, kasbiy rivojlanishi va muvaffaqiyatlarga erishishi uchun ularga o'qituvchi tomonidan turli metodik qo'llanmalar berilishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joyizki, fanlarni o'qitish metodikasi murakkab o'quv predmetlari qatoriga kirib, keng ko'lamdagi ma'lumot umumlashmasini hamda sintetik aqliy faoliyat majmuasini o'zida mujassamlashtiradi. Hozirgi davrdagi malaka oshirish tizimida yuz berayotgan metodologik o'zgarishlar, fanning o'qitish metodikasini qaytadan tahlil qilishni talab qiladi.

O'qituvchining pedagogik mahorati asosan sinf, auditoriya mashg'ulotlarida ko'rindi. Shuni e'tirof etish kerakki, o'qituvchining obro'si faqat uning o'zi uchungina emas balki, yosh avlodning istiqboli uchun ham muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining obro'si bo'lsa, yuqorida qayd qilganimizdek, ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liq bo'lsa ikkinchi tomonidan, jamoat tashkilotlarining mansabdor shaxslarining o'qituvchi obro'sini ko'tarish borasidagi g'amxo'rligiga ham bog'liqdir.

Pedagogik faoliyat samarasi o'qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganiga ham bog'liqdir. Qobiliyat bo'lsa faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o'z maqsadiga erishish uchun uzluksuz o'qishi, o'rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, mustaqil yurtimizda bo'layotgan voqealikni tez anglashi va o'z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqur his qilishi kerak. Shu bilan birga, o'z kasbiy, pedagogik mahoratini oshirib borishi, buning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning pedagogik, psixologik va boshqa jihatlarini puxta o'rganishga harakat qilishi, o'zi ishlab turgan muktab muxitini va



istiqbollariga eng muvofiq bo'lgan pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlay olishi zarur.

Eng asosiysi esa, barcha o'rganganlarni o'quvchilar bilan darslarda hamda boshqa ta'lif-tarbiyaviy jarayonlarda yuksak mahorat bilan qo'llay olish zarurligi hozirgi kun talabidir. Bunda barcha ta'lif muassasalari va pedagog xodimlar shu vaqtgacha ko'plab, yuqori samaradorlikka erishib kelayotgan o'zlariga xos ta'lif tarbiya metodlari, shakllaridan voz kechishlari va faqat qaysidir pedagogik texnologiya turini qo'llashga o'tishlari kerak degan xulosaga kelmasliklari lozim.

Pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash orqali o'qituvchining haqiqiy o'qituvchilik faoliyatiga o'tishi, ya'ni o'quvchini o'qitishi emas, o'quvchilarning bilimlarini o'rganishi, o'zlashtirishi bo'yicha qiyin mexnatiga rahbarlik qilish, ularga qulay, oson, maqsadga tez yetkazadigan va samarali yul-yuriqlar, usullarni to'g'ri tanlab ko'rsatish va amalda samarali qo'llash orqali o'z pedagogik mahoratini muntazam oshirib borishiga erishishdan iborat.

Foydalanylган адабиётлар:

1. A.Mavlanov, S.Abdalova, A.Yusupov "Zamonaviy pedagogik texnologiya tamoillari" Toshkent:2022 y.
2. B.Raximov, A.Mavlanov "Pedagogik texnologiya sxemalarda" Toshkent: 2009 y.
3. I.A.Usmanov "Zamonaviy axborot texnologiyalari"- Т.: "Академия", 2007 y.